

TOP-30

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”



(OTM rektori)

“ 28 ” 02 2025 yil



EKOLOGIYA
FANINING O‘QUV DASTURI

- Bilim sohasi:** 1000 000 – Xizmatlar
- Ta‘lim sohasi:** 1020 000 – Gigiyena va ishlab chiqarishda mehnat
- Ta‘lim yo‘nalishi:** 61020100 – Hayot faoliyati xavfsizligi
61020200 –Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi
(paxta, to‘qimachilik va yengil sanoati)

Toshkent 2025

Fan/modul kodi EKO1504		Semestr 5	ECTS-kreditlar 4	
Fan/modul turi majburiy		Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Ekologiya	48	72	120
2.	<p>I.Fanning mazmuni:</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – ta'lim oluvchilarda ekologik xavfsizlik va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun tizimli bilimlarni shakllantirish. Asosiy vazifalar tabiatdagi o'zaro aloqalarni o'rganish, inson ta'sirini baholash, tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ekologik madaniyatni shakllantirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashdan iborat.</p> <p>Fanni vazifasi - talabalarda ekologik jarayonlarni tizimli tushunishni shakllantirish, ekologik muammolarni tahlil qilish va hal etishga o'rgatish, shuningdek, tabiatni monitoring qilish, boshqarish va muhofaza qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish. Talabalar ekotizimlarning qonuniyatlarini o'rganadilar, ekologik xavflarni baholashni va tabiiy resurslarni qayta tiklash usullarini qo'llashni o'rganadilar.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari):</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi</p> <p>1-mavzu. "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" fanining nazariy asoslari.</p> <p>Fanning tadqiqot obyekti, predmeti va vazifalari. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilishdagi qonun va tamoyillar.</p> <p>2-mavzu. "Tabiat - jamiyat" tizimi, tabiiy resurslar va tabiatga antropogen ta'sir.</p> <p>"Tabiat-jamiyat" tizimining ekologik jihatlarini. Tabiatga antropogen ta'sir.</p>			

3- mavzu. Ekologik tizim, muhit, moslashuv. va ekologik omillar.

Ekologik tizim to'g'risida tushuncha. Muhit va unga moslashuv.

4- mavzu. Havoning va suvning ifloslanishi*

Sayyoraviy (global) geoeologik muammolar. Hududiy (regional) geoeologik muammolar.

5-mavzu. Biologik resurslar va ularni muhofaza qilish

Biologik resurslarning tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati. O'zbekistonning biologik resurslari: foydalanish, muammo va yechimlar.

6-mavzu. O'rmon resurslari va ularni muhofaza qilish

O'rmonning ahamiyati va zahirasi. O'zbekistonning o'rmon resurslari.

**7-mavzu. Mineral resurslar va ulardan foydalanishni optimal-
lashtirish**

Mineral resurslar bilan ta'minlanganlik. O'zbekistonning mineral resurslari va ulardan foydalanish.

8-mavzu. Chiqindilardan foydalanishni tubdan yaxshilash

Chiqindilardan foydalanishning ekologik, iqtisodiy asoslari.

9-mavzu. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (meth)

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar: tushuncha, toifa vamohiyat. O'zbekistonning qo'riqxonalari va milliy tabiat bog'lari

10-mavzu. Atrof-muhit siyosati*

Ekologik ahvol va ekologik vaziyat to'g'risida tushuncha. Ekologik vaziyatlar va ularning geografiyasi. Ekologik vaziyatlarning rivojlanish yo'nalishlari.

11-mavzu. Ekologik iqtisodiy barqaror rivojlanish

Ekologik siyosat va uning mazmuni. O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosati, davlat ekologik dasturlari va ularni amalga oshirish bos-
qichlari

12-mavzu. Yer, atmosfer, okeanlar tizimi*

Xalqaro ekologik hamkorlikning tamoyillari.Global ekologik muammolar yechimi bo'yicha strategik yo'nalishlar.

III.Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Modda va energiyaning aylanma harakati.
2. Kundalik hayotda og'ir metallar va toksinlar va ularning organizmga ta'sirini o'rganish.
3. O'zbekistonda atmosfera havosi ifloslanishining hozirgi holati.
4. Biologik resurslarni muhofaza qilishda O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ning o'mi.
5. Oziq-ovqat mahsulotlarida (masalan, chipslar yoki sharbatlarda) zararli oziq-ovqat qo'shimchalari va kimyoviy moddalar mavjudligini tahlil qilish.
6. Mineral resurslardan foydalanish bilan bog'liq muammolar va ulardan foydalanishni optimallashtirish
7. Turli xil transport turlarining havo sifatiga ta'sirini baholash.
8. O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash
9. Ekologik xavfting manbalari va oqibatlari.
- 10.Ekologik siyosatning ijtimoiy-iqtisodiy yo'naltirilganligi
11. O'zbekiston Respublikasining ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro hamkorlikdagi ishtiroki.
12. Ekologik ta'lim-tarbiya va madaniyat.

Amaliy mashg'ulot ishlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar, keyslar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash, normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

IV.Laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Laboratoriya mashg'ulotlari o'quv rejada rejalashtirilmagan.

	<p>V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Insonning atrof-muhitga ta'siri; 2. Transportning shahar ekologiyasiga ta'sirini tahlil qilish. 3. Turar joylarni ifloslantiruvchi manbalar. 4. "Chiqindidan daromadga": qayta ishlashning jahon tajribasi. 5. Ifloslanishlarning (og'ir metallar, pestitsidlar) tirik organizmlarga ta'siri. 6. Bioxilma-xillikni muhofaza qilish va ekologik turizmni rivojlantirish. 7. O'rmon massivlarini saqlab qolish va cho'llanish muammolari. 8. Suv resurslarini muhofaza qilish va suv ta'minoti masalalari. 9. Qizil kitob va qo'riqxonalar ishining o'rni. 10. Atrof-muhit ifloslanishini indikatsiyalash (gul changi, suv, o'simliklar bo'yicha). 11. Mahalliy suv havzalari yoki buloqlarning ekologik holatini o'rganish. 12. Tuproqning ekologik holati va unga ifloslantiruvchi moddalarning ta'siri. 13. Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlari va loyihalari (masalan, "Ekologiya" milliy loyihasi). 14. Uyali aloqaning o'smirlar salomatligiga ta'siri. 15. Stressning inson organizmiga ta'siri. 16. Ekologik nuqtayi nazardan to'g'ri ovqatlanish alifbosi. 17. Sanoat chiqindilari bilan bog'liq muammolar va yechimlar. <p>VI. Kurs ish(loyiha)ni bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Kurs ish(loyiha)ni O'quv rejada rejalashtirilmagan</p>
3.	<p>VII. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi fanining rivojlanishi va ahamiyati, xususiyati haqida tasavvurga ega bo'lishi; - Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi usullarini bilish va ularning o'tkazilish tartibini bilishi va ulardan foydalana olishi; - Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi muammolarini o'rganish tartibi, va ularni aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishi; - Ekologiya va atrof-muhit holatlarini aniqlash va baholash malakalariga ega bo'lishi kerak.
4.	<p>VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • amaliy mashg'ulotlari;

	<ul style="list-style-type: none"> • interfoal keys-stadilar; • kichik guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish; • jamoa bo‘lib ishlash; • video materiyallar tayyorlash; • individual ishlash.
5.	<p>IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarini to‘liq o‘zlashtirish, fan yuzasidan mustaqil fikrlay olish, mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, nazorat turlari bo‘yicha berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. A.N.Xodjimatomov, N.R.Alimqulov, Sh.A.Xolmurodov, M.E.Djurayev. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish -T.: © «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи» 2020. 228 bet..</p> <p>2. Xo‘janazarov O‘., Muhamedjanova D. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish [Matn] /o‘quv qo‘llanma/ Toshkent, “TURON-IQBOL”, 2018. 216 b..</p> <p>3. O‘zbekiston Respublikasining 09.12.1992 yildagi 754-XII-son —Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Qonuni.</p> <p>Qo‘shimcha adabiyotlar</p> <p>4. Саблина, О. А. Экология и охрана окружающей среды : учебное пособие/О.А.Саблина. – Орск : Издательство Орского гуманитарно-технологического института (филиала) ОГУ, 2017. – 103 с. – ISBN 978-5-8424-0854-2.</p> <p>5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risidagi 21.04.2017 yildagi PF-5024-son Farmoni.</p> <p>6. Michael Begon, Colin R. Townsend, John L. Harper, 4-chi nashr. https://ocw.mit.edu/courses/1-018j-ecology-i-the-earth-system-fall-2009/pages/lecture-notes/?utm_source</p> <p>Axborat manbaalari</p> <p>7. http://www.ziyonet.uz -Ta’lim portali.</p> <p>8. http://titli.uz – Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoati instituti sayti.</p> <p>9. lex.uz -O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.</p> <p>10. gov.uz -O‘zbekiston Respublikasi hukumati portal.</p>

7.	Fanning o'quv dasturi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institut Kengashining 2025 yil "27" 08 dagi "1"-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: Amirova N.S. - TTYSI, "Mehnat muhofazasi va ekologiya" kafedrası dotsenti, t.f.n.
9.	Taqrizchilar: Roziqov R.S. – Toshkent davlat transport universiteti "Texnosfera xavfsizligi" kafedrası mudiri, t.f.n. Salimov O.A. – TTYSI, "Mehnat muhofazasi va ekologiya" kafedrası katta o'qituvchisi, f.f.d (PhD)

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etilgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan.

№	OTMnomi	QS	THE	Havolalar	Silla-busdagi mavzu nomi	Chet el universiteti Silla-buslaridagi mavzular
1	Stanford University	3		https://web.stanford.edu/~ortolano/Re-sources/Syllabi/CEE%20171%20Sylla-bus.pdf?utm_source=chatgpt.com	4-mavzu to'liq olingan	Air and water pollution
2	Stanford University	3		https://web.stanford.edu/~ortolano/Re-sources/Syllabi/CEE%20171%20Sylla-bus.pdf?utm_source=chatgpt.com	10-mavzu to'liq olingan	Environmental policy.
3	Massachusetts Institute of Technology (MIT)	1		https://ocw.mit.edu/courses/1-018j-ecology-i-the-earth-system-fall-2009/resources/mit1_018j09 lec11/	12-mavzu to'liq olingan	Earth, atmosphere, ocean system